

Ilk paleolit davri arxeologiyasi

Abdumannonova Aziza Akbarali qizi

Lolaalimardonova60@gmail.com

+998915830656

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Yusupova Muxlisa Nurali qizi

yusupovarslon3@gmail.com

+998952551803

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu arxeologik izlanishlar natijasida ilk paleolit davri insonlar hayotida turli xil o'zgarishlarga olib kelgan bo'lib bu insonlar hayotida tub o'zgarish bo'lgan. Paleolit davri boshqa davrlarga nisbatan ancha uzoq vaqt davom etgan davr hisoblanadi. Qadimgi bu davrda odamlarning asosiy mehnat quroli tosh hisoblangan. Bu davrda insoniyat rivojlanishining natijasi o'laroq ko'plab yirik kashfiyotlar qilindi. Masalan ular olovni olish va undan foydalanishni o'rgandilar kiyim kechaklar tayyorlash va kamoning kashf etilishi turli mehnat va ov qurollari yasashni kashf qiladilar. Paleolit davri manzilgohlari turli mintaqalardan topilgan bo'lib biz barchasiga birma- bir tuxtalamiz.*

***Kalit so'zlar:** paleolit, Toshkent viloyati, Urgut tumani, Surxandaryo viloyati, Farg'ona vodiysi, Ko'lbuloq, Seling'ur, Qosimov, Shel va Ashel, Teshiktosh, mehnat qurollari.*

***Аннотация:** В результате этих археологических исследований период раннего палеолита привел к различным изменениям в жизни человека, что стало фундаментальным изменением в жизни человека. Эпоха палеолита- это период, который длился долго по сравнению с другими эпохами. Камень считался основным рабочим инструментом людей в этот древний период. Многие великие открытия были сделаны в этот период в результате развития человечества. Они открыли изготовление орудия труда и*

охоты. Поселения палеолита были обнаружены в разных регионах, и мы коснемся их всех по отдельности.

Ключевые слова: палеолит, Ташкентская область, Ургутский район, Сурхандарьинская область, Фергонская долина, Колбулок, Селингур, Касимов, Шел и Ашель, Тешикташ, орудия труда.

Abstract: As a result of these archeological researches, the early Paleolithic period brought about various changes in human life, which was a fundamental change in human life. The Paleolithic era is a period that lasted much longer than other eras. Stone was considered the main working tool of people in this ancient period. During this period, many great discoveries were made as a result of human development. they discovered the making of labor and hunting tools. Paleolithic settlements were found in different regions, and we will touch on all of them one by one.

Key words: Paleolithic, Tashkent region, Urgut district, Surkhandarya region, Fergona valley, Kolbulok, Selingur, Kasimov, Shel and Ashel, Teshiktash, tools.

Kirish: Paleolit rivojlanish darajasiga qarab, mehnat qurollaridagio'zgarishlar asosida turli bosqichlarga bo'linadi. Ilgari ilk paleolit davri shell, ashel davrlariga bo'lingan edi. Lekin keyingi davrlarda qilingan tadqiqotlar natijasida, uni olduvay va ashel davrlariga bo'lish muvofiq deb topildi. Chunki ilgari olduvay davri yodgorliklari kam bo'lib, uni davr tariqasida ajratish imkoni bo'lmagan. Shell va ashel qo'mcho'qmorlaridagi vazn jihatidan farqini e'tiborga olib, ularni davr sifatida ajratishgan. Keyingi yillarda olduvay davri mehnat qurollarining ko'plab topilishi, uning davr sifatida ajratib ko'rsatishga imkon tug'dirdi. Shell va ashel davrlari esa, bir davr qilib - ashel davri deb belgilandi.

Muhokama bulimi: Insoniyat taraqqiyotida eng uzoq davom qilgan davr - qadimgi toshdavri - paleolit hisoblanadi. «Paleolit» so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «paleos»- «qadimgi», «litos»— «tosh», ya'ni qadimgi tosh davri degan ma'noni beradi. Paleolit davri xronologik jihatidan 3 million yillikdan to 12 ming yillikkacha davom etadi va uch davrga- ilk, o'rta va so'nggi davrlarga bo'linadi.

Jahon arxeologiyasida paleolit davri bosqichlari ko'rsatilgan[1].

Ilk paleolit davriga oid Abbevil yodgorligi Fransiyaning Senadaryosi qirg'oqlaridan topilgan. U erda 1835 yilda M. Pikar dastlabki tosh qurollarini topgan. Keyinchalik Bushe de Pert tadqiqot ishlarini olib borgan. 1932 yildan F.Breyl Fransiyaning ilk paleolit davrini Abbevil davri deb nomlagan. Bugungi kunda Evropada ilk paleolit davri shell emas, balki abbevil deb ataladi. O'zbekiston hududining geotektonik va geomagnit hodisalarini tadqiq qilish natijasida uning o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Bu esa paleolit davri xronologiyasida o'zgarishlarga olib keldi. Ilk paleolit davri jahon arxeologiyasida 3 mln yillikdan to - 100 ming yilliklarga deb belgilangan. O'zbekistonda, ilgari, ilk paleolit davri mil.avv. 1 mln yillikdan 100 ming yillikkacha davom etgan deb hisoblangan. Lekin keyingi davrlarda arxeologiya sohasidagi yutuqlar bu sanani yanada aniqlashtirdi. Arxeologik davrlashtirishning yangi metodi asosida uning bundan 2 mln yillikdan 200 ming yillikgacha davom qilganligi aniqlandi[1]. Ilk paleolit davri - bu davr yodgorliklarining sanasi 700-500 ming yil avval boshlanib, miloddan avvalgi 15000 yilliklarga davom etgan va Ashel davri deb yuritilgan. Chunki Ashel davri yodgorliklari O'zbekistonda bo'lmagan. Ashel davri oxirida Yevropani shimoliy mintaqalarini qalin muz qoplagan. Lekin U. Islomov shu davr odamini qoldig'ini (bosh suyagini bir bo'lagi, yelka suyagi va 10 ta tish qoldig'ini) topib o'rgangan Farg'ona vodiysini Selung'ur g'oridan, A.Qosimov esa Ko'rbuloq makonini o'rganib Ashel davriga oid 22 ta, muste davriga oid 24 ta madaniy qatlamni o'rganadi. O'zbekistonda ashel davriga oid ko'plab makonlar tadqiq qilindi va qilinmoqda. Bunda A.Asqarov, U.Islomov, K.A.Kraxmal, M.Qosimov, T.Omonqulov, R.Sulaymonovlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Bunda markaziy Osiyoga odamlar juda erta kelib joylasha boshlaganlar degan xulosaga kelish mumkin. O'rta paleolit (muste madaniyati) davri - bu davrda mashhur yodgorliklar topilgan va 24 ta madaniy qatlam o'rganilgan. Ayniksa, Teshiktosh Surxondaryodagi, Obirahmat Toshkent viloyatidan, Xo'jakent Toshkent viloyatidan, Ko'lbuloq Toshkent viloyatidan, Samarqand viloyatidan Omonqo'ton, manzili, Navoiy viloyatidan

Uchtut nomlari o'rganilib O'zbekistonning qadimgi madaniyati va san'ati tarixiga oid manbalar topiladi. Teshiktosh g'ori 5 ta qatlamdan iborat, g'orni uzunligi 20 m, balandligi 9 m, chuqurligi 21 m bo'lgan. 2859 tosh qurollar topilgan. Teshiktoshdan 7-11 yashar (qiz bola) Neandertal odamini topilishi buyuk kashfiyot bo'lgan[2].

Ilk Paleolit yodgorliklari O'rta Osiyoda Farg'ona vodiysining So'x soyi sohilida joylashgan Selung'ur g'ori, Ohangaron vodiysining Qizilolmasoy bo'yida, Ko'lbuloq manzilgohida, Janubiy Tojikistonning Ko'ldara va Janubiy Qozog'istonning Aristandi vodiysida topib o'rganildi. Selung'ur g'oridan ibtidoiy odamning suyak qoldiqlari (bosh chanog'ining bo'lagi, yelka suyagi va o'ndan ortiq tishlari) topilib, tadqiq etildi. Bu davrga mansub Ko'l manzilgohida buloq eng qadimiy odam to'dalari qariyb yarim mln. yil davomida deyarli uzluksiz yashagani ma'lum bo'ldi. Shu bois yodgorlik ostida 20 m dan ortiqroq qalinlikda madaniy qatlam hosil bo'lgan. Qariyb 20 yillik qazish jarayonida M. Qosimov 30 mingdan ortiq tosh qurollar cho'qmor, qirg'ich pichoqsimon keskich va nukleuslar, hayvon va parranda suyaklari hamda turli xildagi o'simlik qoldiklari qayd etiladi. Bu topilmalar, shubhasiz, ilk Paleolit odamining nihoyatda sermashaqqat hayoti, tosh qurollar yasash usullari va xom ashyosi, shuningdek, o'sha zamon tabiiy va unga boqim bo'lgan Ko'lbuloqning ovchi va termachilarning iste'mol qiluvchilik xo'jaligi haqida guvohlik beradi. Qarang Ko'lbuloq manzilgohi so'zsiz, Selungur va Ko'lbuloq yodgorliklarining arxeologiya jihatidan qazib o'rganilishi tufayli O'rta Osiyo eng qadimiy odamlar yashagan maskanlar qatoridan o'rin olgan. Ilk paleolit davrida mehnat qurollari tosh, suyak va shoxlardan yasalgan. Ulardan faqat tosh qurollargina bizgacha yetib kelgan. Olduvay bosqichida odamlar eng primitiv usulda yasalgan qo'l cho'qmorlari (chopper)dan foydalanganlar. Mazkur qurollarni yasash uchun dastlab, odamlar qulay shaklga ega bo'lgan (ko'proq yapaloq shakldagi) qayroqtoshni topib, qattiqroq tosh (tosh bolg'a-otboynik) yordamida uning uchini uchirib qurol holiga keltirganlar. Qo'I cho'qmorlari odatda bir tomoni bodomga yoki yurakka o'xshab, to'mtoq bo'lgan, lekin uni qo'l bilan ushlab qulay bo'lmagan. Ikkinchi, qarama-qarshi tomoni esa, o'tkiruchli bo'lib, bu tomoni kesish, chopish, kovlash kabi vazifalarni bajargan. Ibtidoiy odamlar shu qurollar yordamida

ov qilganlar, ildiz kovlaganlar, go'shtni maydalaganlar, terilarni shilganlar. Odamlarning qo'li esa, dasta vazifasini bajargan. Tadqiqotchilarning fikricha, qo'l cho'qmorlari bundan 3 mln. yil ilgari paydo bo'lgan. U olduvay davri quroli bo'lib, uning bir tomonga ishlov berilgan. Ilk qo'l cho'qmori Tanzaniyadagi Olduvay darasidan topilgan. Bunday qurollar' Efiopiyaning Koda Gona, Janubiy Afrika, O'rta Osiyodagi Selung'ur makonidan topilgan. Olduvay davri odamlari termachilik va yirik hayvonlarga to'da-to'da bo'lib hujum qilib, ovchilik bilan shug'ullanganlar. O'rta Sharq atamasi (ingliz tilida Middle East) Britaniyaning Hindiston ishlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan 1850-yilda qo'llanilgan. Biroq 1902-yilda amerikalik harbiy dengiz nazariyotchisi Alfred Tayer Mexen tomonidan Arabiston yarim oroli va Hindiston oralig'idagi xududlarni ifodalashi natijasida bu atama tarix fanida keng qo'llanila boshlandi. Ikkinchi jahon urushiga qadar Turkiya va O'rta Yer dengizining sharqiy qirg'oqlari oralig'idagi hududlar Yaqin Sharq deb atalgan bo'lsa, Mesopotamiyadan toki Birmagacha bo'lgan hududlar O'rta Sharq deb nomlangan edi. Rus mualliflari adabiyotlarida esa Yaqin Sharq atamasi qo'llanilgan bo'lib, bu atama asosida Eron, Pokiston va Afg'oniston davlatlari hududlari ham qo'shib ifodalanadi. Yaqin va O'rta Sharq davlatlariga Afg'oniston, Baxrayn, Misr, Eron, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Iroq, Turkiya, Ummon, Quvayt, Qatar, Isroil, lordaniya, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Yaqin va O'rta Sharq hududining paleolit davri yodgorliklarining o'rganilish, asosan, XX asrda amalga oshirilgan. 1929-1936-yillarda ingliz tadqiqotchisi D. Garrod Falastinning Karmel tog' tizmasida paleolit davri yodgorliklarini o'rganishni boshlab beradi. Sharqiy O'rta Yer dengizi havzasida A. Rust, R. Nevill, G. Vatanabeiar tomonidan o'kazilgan tadqiqotlar natijasida ochiq turdagi va g'orsimon hamda paleolit davri qabrlari topilgan bo'lib, bu o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida tosh davri madaniyatlarining tabiat bilan uyg'unlikda taraqqiy etish dinamikasini kuzatishimiz mumkin. Tadqiqotchilar I. Korobkov, J. Skinner, J. Perro, L. Koplendlar tomonidan Sharqiy O'rta yer dengizi havzasi tosh davri qurollari tiologiyasi va klassifikatsiyasi hamda madaniyatlarining o'zaro aloqalari ishlab chiqilgan. Paleolit davrida Yaqin va O'rta Sharq hududi keng miqyosda

muzlash davrini o'z boshidan kechirmagan. Muzlash jarayoni Yaqin va O'rta Sharq hududining shimoliy rayonlarida kechgan bo'lsa, janubiy rayonlarda esa plyuvial, ya'ni yog'ingarchilikdan iborat iqlim hukm surgan. 2 million yil burun Yaqin va O'rta Sharq hududida issiq iqlimni xush ko'ruvchi villafrank fauna va florasini mavjud bo'lgan.

Xulosa.

Ilk paleolit davri mehnat qurollari o'zining soddaligi va qupolligi bilan keyingi davr mehnat qurollaridan ancha farq qilgan. Makonlar suvga yaqin, ochiq yerlarda tashkil etilgan. Eng qadimgi odamlar dastlab to'da bo'lib yashagan. Makonlardan topilgan hayvon suyaklari va mehnat qurollarning xususiyatlari qadimgi odamlar termachilik va ovchilik bilan shug'ullanib, shu asosda hayot kechirganliklarini ko'rsatadi. Bizga ma'lumki shubhasiz u vaqtda yashagan odamlarning aqliy va jismoniy rivojlanish darajasi yakka- yakka bo'lib yashashga imkon bermagan. Ularning oziq- ovqat zahiralari chegaralangan edi. Bundan tashqari yakka holda yashagan odamlar o'zlarini yirtqich hayvonlar hujumidan asray olmagan. Ochlik xavfi va ko'plab tabiiy sabablar odamlarning to'da bo'lib yashashlariga sabab bo'lgan. Shuni ham aytib o'tish joizki ilk paleolit davridan iqlim issiq bo'lganligi sababli odamlarga turar joylar va kiyimlarga ehtiyoji bo'lmagan. Biz ba'zi bir manbalarni tahlil qilib ilk paleolit davrini chuqurroq o'rganishga harakat qildik.

Adabiyotlar:

- 1.N.A.Egamberdiyeva Arxeologiya Toshkent 2011.B 18
- 2.J.Annayev
- 3.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil